



## BADIIY ASARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY VA USULLARI VA YONDASHUVLARI

*Filologiya fanlari doktori, professor*

**D.To'rayev**

*Shahrisabz davlat pedagogika  
instituti O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrası O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi magistratura bosqichi  
2-kurs talabasi*

**Xayrullayeva Mohichehra Azim qizi**

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot ishida badiiy asar va badiiy matnni tahlil qilishning bugungi zamonga xos bo'lgan yangicha metod va usullari bir nechta bosqichlarda o'rganib chiqildi. Innovatsion talablar va yondashuvlar asosida asarni badiiy jihatdan yanada mukammal va ta'sirli talqin etish masalalariga yechim topishga harakat qilindi. Turlicha qarashlar asosida badiiylikka erishish, uni yanada boyitish, asar mohiyatini yetarli tushuntirib berish maqsadi ochiqlandi.

**Kalit so'zlar:** badiiy asar, fikrlash, tadqiqot, metod, talqin, tahlil, innovatsiya.

Badiiy asar bevosita hayot haqiqatini aks ettirgan, insonni jamiyat va muhit munosabatida faol bo'lishga undaydigan, qolaversa, erkin tafakkur qilishga o'rgatadigan chinakam hayot maktabidir. Badiiy asar shaxsni tabiiy tajriba, axloqiy qadriyat va ijtimoiy aloqalarda qanday o'zni tuta olishni, harakat qilib nimalarga erishish mumkinligini, o'zgalarning ham taqdiriga befarq qarab bo'lmasligini mukammal holda tushuntira oladigan ma'naviy murabbiy sifatida baholanadi.

Badiiy asarni tahlil qilishning zamonaviy usul va yondashuvlari an'anaviy metodlardan farq qilib, ko'proq kitobxonning shaxsiy idroki, matnning strukturaviy qurilishi va turli fanlararo bog'liqliklariga e'tibor qaratadi. Hozirgi adabiyotshunoslik va pedagogikada badiiy asar tahlili faqat mazmunni aytib berish emas, balki asarning estetik, psixologik va tarkibiy xususiyatlarini ochib berishni nazarda tutadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asar tahlili ko'p qatlamli ilmiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Badiiy matn til, tafakkur va madaniyat kesishgan murakkab tizim bo'lib, uni tahlil qilishda turli xil metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Dastlab, badiiy asar tahlilining nazariy asoslari bo'yicha, bunda asarning asosiy komponentlari, ya'ni syujet, kompozitsiya,



voqealar rivoji, obrazlar tizimi, asar tili va boshqa muhim vositalar nazarda tutiladi. Badiiy asar g'oya va obrazlar orqali voqelikni aks ettiruvchi murakkab tizim,[1,45-b.]ekan, uni o'rganish ham bir qadar murakkab va chuqur fikr yuritish mas'uliyatini talab qilishi tabiiy hol.

Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozirdir. Asarni tahlil qila olish o'z-o'zidan talqinga yo'l ochadi, har bir kitobxon mustaqil fikr yuritish vositasida sintez usuli bilan badiiy matnga baho bera boshlaydi. Ayniqsa, hozirgi innovatsion talab va istaklar zamonida asarni tahlil qilish ko'tikmasi ham turfa yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, badiiy matnni lingvistik jihatdan tahlil qilishda til birliklarining o'zaro bog'liqligini asosiy omil sifatida ko'rish [2,46-b.] shuni anglatadiki, asar qaysi tilda yozilishidan qat'i nazar, avvalo, o'sha tilning qonuniyatlarini, sintaktik, morfologik, punktuatsion va stilistik birliklarini kompleks holatda o'zida aks ettira olishi muhim omil sanaladi.

Lingvopoetik yondashuvda, asosan, badiiy matnning til birliklari estetik funksiya vazifasida o'rganiladi. N. Musulmanova lingvopoetik tahlilni ikki bosqichga ajratadi:

Semantik bosqich bunda til birliklari o'zining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosida

Metasemiotik bosqich til birliklari badiiy vazifasi nuqtayi nazaridan o'rganiladi.[3,12-b.]

Badiiy asarni tahlil qilishning zamonaviy usullari va yondashuvlari an'anaviy filologik tahlildan farqli o'laroq, matnni nafaqat mazmunan tushunish, balki uning strukturaviy, psixologik, madaniy va funksional xususiyatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Bugungi kunda zamonaviy adabiyotshunoslik ta'lim sharoitida badiiy asarni yangicha usulda tahlil qilishning bir qancha yondashuvlari mavjud:

1. Struktural va semiotik tahlil asar syujeti, kompozitsiyasi, personajlar tizimi, janr xususiyatlari, asardagi katta-kichik belgilar, ramzlar, timsollar va ularning ma'no yukini ochib berishga xizmat qiladi.

2. Ruhiy, ya'ni psixoanalitik tahlil asosan qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy olami, ongli va ongsiz harakatlari, motivatsiya dunyosi va xulq-atvori bilan jarayonni tahlil qiladi.

3. Interfaol va kreativ tahlil bunda asosiy e'tibor talabaning jarayonga faolligi, ijobiy va salbiy qarashlarga mustaqil holatda ega bo'lishi, qahramonlarning o'zaro munosabatlarini talqin qilib baho bera olishi hamda asar voqealarining turli holda ro'y berishi yuzasidan debat, bahs, munozara uyushtira olishiga qaratiladi.



4. Qiyosiy, ya'ni komparativ tahlil o'rganilayotgan badiiylikni boshqa badiiy asar, kino, film, teatr yoki tarixiy kontekst bilan o'zaro solishtirib, qiyoslab o'tganishni nazarda tutadi.

5. Matn va nutq tahlili bu bosqichda talaba yoki o'quvchi asar tili, muallif qanday so'zlardan faol foydalangan va uning so'z tanlash mahorati, badiiy tasvir vositalari (sinekdoxa, metonimiya, metafora, kinoya) va bularning badiiy asarda tashigan ma'no yukini aniqlashga asoslanadi.

Kishida badiiy asarni to'g'ri anglash va ta'sirlanish qobiliyati faqatgina badiiy asarni mutolaa qilish bilan yuzaga kelmaydi, aksincha shu o'tqilgan adabiy kontekstni ma'no-mohiyatini anglab yetish uchun har bir individ muayyan darajada estetik va fikrlash tayyorgarligiga ega bo'lishi lozim. Zotan,

Badiiy matn murakkab estetik butunlik sifatida ko'p qatlamli tahlilni talab qiladi[4,256-b]. Asar yozilayotgan vaqtda yozuvchi qaysi voqeani asos qilib olgan-u bu voqea uning qo'liga qalam tutqazib, ruhiy olamini, kechinmalarini qanchalik bezovta qilganligi rostan ham juda murakkab jarayondir. Buni o'qiguvchi qanday hazm qila olishi, ta'sirlanib o'z olamiga sig'dira bilishi esa ikki marta murakkab bosqich sanaladi. Ayni shunday paytda turli tahlil usullariga ehtiyoj borligi yuzaga chiqadi.

Rus metodist olimi Boris Bobilevning Milliy oliy o'quv yurtlarda badiiy matnni filologik tahlil qilishning nazariy asoslari tadqiqotida adabiy asarning badiiy tahlili: Badiiy matnning filologik tahlilidan asosiy maqsad muallif obrazini idrok etish, unga yetishishdir. Ayni shu holat badiiy matnni filologik tahlil qilishning asosiga qo'yilishi lozim, - degan tarzda izohlanadi. Badiiy asarni tahlil qilish uning shakl va mazmun birligini ochib berish demakdir, [5,384-b] zero asarning tuzilish strukturasini tushunmagan kitobxon uning mazmunini, ya'ni asarda nima voqea va u qanday yoritilyapti, yozuvchining badiiy maqsadi nima ekanligini yoki bu badiiy birlik asosida qanday hayot haqiqati mujassam ekanligini ham anglab yetmaydi. Tahlil degan amaliy jarayon esa, turli rakurslarda badiiy matnni turli tomondan yoritib berishga xizmat qilishi muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari Toshkent, 2002. 45 b.
2. Musulmanova N. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili Toshkent, 2024. 12 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Akademnashr, 2018. 384 b.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili Toshkent. 2008. 46 b.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi Toshkent: Fan, 2009. - 256 b.

